



Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!

Vaziyat

2024 йил
15 август
№ 33 (974)



Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги нашри

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган

ЯНА БИР МУҲИМ МАШҒУЛОТ



Фавқулодда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев ҳамда Жиззах вилоят ҳокими Э.Солиев иштирокида ўтказилган қўмондонлик-штаб ўқув машғулотида ҳам ФВДТ ҳудудий қўйи тизими органларининг фавқулодда вазиятларда функционал вазифаларини бажариш йўналишларини аниқлаштиришга жиддий аҳамият қаратилди. Бу турдаги машқлар ҳарбий хизматчиларга турли мураккаб вазиятларда мустақил қарор қабул қилиш ҳамда ҳаракатланишда қўл келиши таъкидланди.

Авария-қутқарув ва бошқа кечиктириб бўлмайдиган вазифаларни бажаришда моддий-техник таъминот масалаларини ҳал этиш борасида зарур фикрлар баён этилди. Юзага келган фавқулодда вазиятлар оқибатларини бартараф этишда ФВДТ хизматларининг ҳамкорликдаги ҳаракатлари кўриб чиқилди. 2024 – 2025 йиллар куз-қиш мавсумига тайёргарлик кўриш, мавсум давомида иссиқлик ва энергетика тармоқларини барқарор ишлашини таъминлаш борасидаги ишларни такомиллаштиришга қаратилган амалий ҳаракатлар олиб борилди. Аҳолини фавқулодда вазиятларда тўғри ҳаракат қилиш, юзага келиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларда талафотларнинг олдини олиш, қутқарув ва фуқаро муҳофазаси тузилмаларининг хизмат фаолиятлари синовдан ўтказилди.

Маҳалла фуқаролар йиғинларида, хизмат кўрсатувчи ташкилотларда аҳоли ва иқтисодий тармоқларига электр энергияси, газ ресурсларини етказиб беришда содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш, аҳолини юзага келган вазиятлардан хабардор этиш, жабрланганларга тиббий ёрдам кўрсатиш, аҳолини хавфсиз ҳудудларга тезкорлик билан кўчириш ишларини ташкиллаштириш ва аҳолини тўғри ҳаракат қилишга ўргатиш бўйича зарур кўникмалар берилди.

Машқлар бевосита жойларда, кўргазмали шаклда ташкил этилиб, тизим ходимларининг билим ва кўникмалари оширилди. Уларни ўтказиш давомида мавсумга пухта тайёргарлик кўриш, авариялар содир бўлганда табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва бартараф этишни ташкил этиш, авария ҳолатларида ҳудудий

бошқарув органларининг ҳамкорликдаги ҳаракатларини такомиллаштириш каби алоҳида эътибор қаратилди. Соҳадаги камчиликларни бартараф этиш юзасидан куз-қиш мавсумида содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларни олдини олиш, авария тиклаш бўлинмаларининг тайёргарлиги ва бошқа зарурий жиҳатларни эътиборга олиш зарурлиги кўрсатиб ўтилди.

Тадбир доирасида “Раҳбар ва ёшлар” учрашуви ҳам ташкил қилинди. Унда йигит-қизларнинг фикр-мулоҳазалари, истак ва таклифлари тингланиб, ташаббуслари қўллаб-қувватланди. Масъулларга топшириқлар берилди. Соғлом ва баркамол авлодни тарбиялаш, уларни мамлакатда амалга оширилаётган сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий ислохотларнинг фаол ва бевосита иштирокчиси, жамиятнинг ҳақиқий таянчи ва суянчига айлантириш мамлакатимизнинг устувор ва стратегик вазифаларидан бири бўлиб келаётгани қайд этилди. Фавқулодда вазиятлар вазири ўзининг ҳаёт йўли тўғрисида сўз юритиб, касбий билим ва тажрибалари билан ўртоқлашди ва бугунги кунда ёшларга яратилаётган имкониятлардан аниқ фойдаланишнинг аҳамияти ҳақида таъкидлаб ўтди.

Самимий суҳбат давомида ёшлар вазирига ўзларининг қизиқтирган саволларини бериб, батафсил жавоб олдилар. Бир гуруҳ фаол ёшлар эсдалик совғалари билан тақдирланди.

Саҳифани Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

ТЕЗКОР ЙИГИЛИШ

Наманган вилояти ФВБ масъул ходимлари томонидан Наманган шаҳар ФВ бўлими шахсий таркиби иштирокида коррупцияга қарши курашиш бўйича тезкор йиғилиш бўлиб ўтди.

Унда, Коррупцияга қарши курашиш ва Виждон эркинлиги тўғрисидаги қонунларнинг мазмун ва моҳияти тушунтирилди.

Шунингдек, коррупция, тамагирик ва суиистеъмолчиликларнинг олдини олиш ҳамда унга қарши курашиш, диний экстремистик оқимлар ва ёт ғоялар таъсиридан сақланиш, ахборот хавфсизлигига риоя этиш, таваккалчиликка асосланган онлайн қимор ўйинларини ўйнамаслик, гиёҳванд ва психотроп моддалар муомаласига қарши курашиш, йўл ҳаракати қоидаларига риоя этиш, ҳарбий ва меҳнат интизомига риоя этиш каби масалаларда профилактик тадбир ўтказилди.

Ўткирбек КАЛОНОВ,

Наманган вилояти ФВБ ШХБ ходими, подполковник.

Тўлаётган солиқларимиз давлатимиз қудратини ошириши, халқимиз турмуш шароитини янада яхшилашга дахлдорлиги хусусида мулоҳазаларимизни айтиб ўтишни мақсадга мувофиқ, деб билдик. Аввало шунга айтиш керакки, ҳар қайсимиз даромадимизнинг муайян қисми солиққа, деб чегириб қолинишни яхши биламиз. Хўш, солиқ ўзи нима, нега фуқаролар солиқ тўлайди? Ёки айримлар нима сабабдан солиқ тўлашдан бўйин товламоқчи бўлишади?

СОЛИҚҚА "ЧАП" БЕРИБ БЎЛМАЙДИ

Очиғи, ҳамма ҳам иқтисодий масалаларда етарлича тушунчага эга эмас. Шу боис, солиқ, солиқ солинадиган даромад, солиқ тўловчи ҳақида қисқача изоҳ бериб ўтсак. Солиқ тушунчаси маълум тартиб асосида шахслардан давлат фойдасига ундирилаётган пул ёки маблағни англатади. Ёхуд солиқни давлат томонидан кўрсатилган хизмат учун мажбурий тўлов деса ҳам бўлади. Солиқ солинадиган даромад ёки мулк солиқ объекти бўлади. Тўловчилар солиқ субъекти ҳисобланади. Улар юридик ёки жисмоний шахслар бўлиши мумкин.

Лекин айрим фуқароларимиз бу хизматлар ҳақини ихтиёрий равишда тўлашни истамасликлари ҳам бор гап.

Шу ўринда бир мисолни келтирсак. И. С. Сергели тумани Давлат хизматлари марказидан рўйхатга олинган МЧЖ раҳбари бўлган. У ёғоч, қурилиш материаллари ва санитария-техник ускуналар улгуржи савдоси билан шуғулланувчи ташкилот раҳбари бўлган. И.С. солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларни тўламаслик мақсадида 2024 йил 10 февраль кунидан 4 мартга қадар ўзининг моддий жавобгарлигида бўлган 1. 695. 027.900 сўмлик товар моддий бойликларини чек ёки квитанция қўлламаган ҳолда нақд пулга сотиб юборган. Солиқ солиш базасини ҳисоботларда қасддан камайтириб кўр-

сатиб, бунинг оқибатида 203.403.300 сўм қўшилган қиймат солиғини тўлашдан бўйин товлаган. Натижада давлат манфаатларига жуда кўп миқдорда зарар етказганликда айбланган. Яқинда мазкур жиноят иши судда кўриб чиқилди ва унга қонуний жазо тайинланди.

Шунинг учун бундай тўловлар қонуний тартибда мажбурий деб белгиланган ва солиқларни тўлаш мажбурий ҳисобланади. Биламизки, мулкнинг турлича кўринишлари мавжуд. Шубҳасиз, мулк соҳиблари эркин фаолият кўрсатишни исташади. Ўз фаолиятига давлатнинг аралашувини кўп ҳам ёқтиришмайди. Бундай шароитда юридик ва жисмоний шахсларнинг фаолиятига давлатнинг аралашуви фақат солиқлар орқали амалга оширилади. Бинобарин, солиқлар бозор иқтисодиёти шароитига тўла-тўқис мос келади.

Лўнда қилиб айтганда, солиқ ҳар биримизнинг зиммамиздаги қарз. Бу бировнинг олдига эмас, балки, мамлакат раҳнақига, давлат хазинасига ҳар биримиз қўшишимиз лозим бўлган улуш, фуқаролик нўқтаи назардан эса солиқларни ўз вақтида тўлаш ҳар биримизнинг шарафли бурчимиз ҳисобланади.

Алишер ЖАЛИЛОВ,

Жиноят ишлари бўйича Яққасарой туман судининг раиси.

Нукус гарнизони маънавият ва маърифат марказида бўлиб, ўтган тадбирда Қорақалпоғистон Республикаси шаҳар ва туманларидаги ташкилотлар ўзларининг юздан ортиқ бўш иш ўринлари билан иштирок этди.

ЁШЛАР БАНДЛИГИ ТАЪМИНЛАНМОҚДА



Унда, Мудофаа ишлари, Фавқулодда вазиятлар ва Миллий гвардия бошқармалари, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги масъуллари ҳамда тадбиркорлар қатнашди.

Жараёнда 14 нафар ёшларнинг доимий бандлиги таъминланди.

Бундан ташқари, ҳарбий хизматчилар оила аъзоларидан 2 нафарига Нукус шаҳридаги корхона ва ташкилотларга ишга кириш учун йўлланма берилди.

Тадбир жараёнида ёшларга яратилган кенг имкониятлар ҳақида ташкилотчи ва ҳамкорлар томонидан атрофлича маълумотлар бериб берилди.

Бу каби тадбирлар изчил давом этмоқда.

Султанмурат КАЛЕНДЕРОВ,

Нукус ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси, адлия подполковниги.

ОИЛА - МУҚАДДАС МАСКАН

Самарқанд ҳарбий прокуратураси, ҳарбий қўмондонлик ва мутасадди ташкилотлар ҳамкорлигида ҳарбий қисмларнинг бирида ҳарбий хизматчилар ва уларнинг оила аъзолари иштирокида "Оила муқаддас маскан" мавзусида мулоқот ўтказилди.

Таъкидланганидек, оила – муқаддас кўрғон. Оилада мустаҳкам, тинч ва соғлом муҳит барқарор бўлса, жамият барқарор ва фаровон бўлади. Фарзандлар ҳар томонлама баркамол вояга етади.

Ҳар бир инсон учун энг катта савобат бу оилавий бутунлик ва хотиржамликдир. Оиласидан, фарзандларидан кўнгли тўқ инсоннинг ишида ҳам унум ва барака бўлади.

Сўз олганлар, ҳарбий хизматчилар ҳамда уларнинг оила аъзоларининг ҳуқуқий ва ижтимоий ҳимояси асослари белгиланган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар моҳияти ва аҳамияти ҳақида атрофлича тўхталиб ўтилди.

Мулоқот якунида намунали ва фаол ҳарбий хизматчилардан бир гуруҳининг оила аъзоларига ташаккурнома ҳамда эсдалик совғалар топширилди.

Бекзод ХУДОЙБЕРДИЕВ,

Самарқанд ҳарбий прокурорининг ўринбосари, адлия подполковниги.

ЁШЛАР БЕЛЛАШДИ

Марказий ҳарбий округ қўшинлари қўмондонлиги, ҳарбий қисм ва Навоий ҳарбий прокуратураси ҳамкорлигида вилоят ҳудудидаги оталиққа олинган ёшлар ўртасида мажмуавий спорт турлари, турли танловлар ва маданий тадбирлардан ташкил топган мусобақанинг Навоий вилоят босқичи ўтказилди.

Мазкур мусобақаларда иштирок этган ёшлар ўзларининг билим, санъат, спорт ва бошқа жабҳалардаги қобилиятлари билан фаол иштирок этишди.

Жараён давомида ёшлар билан очик мулоқот ҳам ташкил этилиб, уларнинг муаммолари ўрганилди. Уларни қизиқтирган саволлар юзасидан ҳуқуқий тушунтиришлар берилди.

Мусобақа якунида кўрик-танловда ғолиб, деб топилган ёшлар эсдалик совғалар билан тақдирландилар.

Фаррух ЁРИЕВ,

Навоий ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси, адлия катта лейтенанти.



ГАЛДАГИ ЎРГАНИШЛАР

Тошкент ҳарбий прокуратураси томонидан назорат остидаги ҳарбий қисм ва муассасаларда доимий равишда ўрганишлар олиб борилмоқда.

Бу гал Ички ишлар вазирлиги Қоровул қўшинларига қарашли ҳарбий қисмларнинг бирида ҳарбий хизматни ўташ учун яратилган шароитлар, махсус техника ва воситалар шайлиги ўрганилди.

Жараёнда масъулларга тегишли тавсия ва кўрсатмалар бериб ўтилди.

Шунингдек, ҳарбий хизматчилар билан ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш бўйича мулоқот ташкил этилди.

Сухбат давомида ҳуқуқбузарлик турлари, жиноят тушунчаси ва таснифи, жавобгарлик асослари, жазо турлари юзасидан атрофлича тушунтиришлар берилди.

Тадбирда иштирокчилар ўзларининг қизиқтирган саволларига батафсил жавоб олдилар.

Алишер ҚУРБОНОВ,

Тошкент ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси, адлия подполковниги.

КЎРСАТМАЛАР БЕРИЛДИ

Наманган вилояти ФВБда июль ойи фаолияти бўйича таҳлилий-танқидий ҳисобот йиғилиши бўлиб ўтди.

Унда бошқарма бошлиғи, бошлиқ ўринбосарлари, бошқарма ҳарбий хизматчилари, Наманган шаҳар ва барча туман ФВ бўлимлари бошлиқлари, ўринбосарлари ҳамда ёнғин-қутқарув қисм бошлиқлари иштирок этдилар.

Йиғилишда бошқарма бошлиғи полковник Бунёд Эгамназаров томонидан июль ойи давомида амалга оширилган ишларга тўхталиб, кун тартиби иштирокчиларга таништирилди.

Бундан ташқари, бошқарма бўлим бошлиқлари томонидан шаҳар ва туман ФВ бўлимларининг ўтган ой давомида амалга оширилган ишлар ҳамда йўл қўйилган камчиликлар юзасидан



ахборотлар берилди. Вилоят ҳудудидаги мавжуд кичик ҳажмли, моторли кемалар эгалари билан соз ҳолатдалиги ҳамда белгиланган ҳужжатлари расмийлаштирилганлигини ўрганиш юзасидан топшириқ берилди.

Исломжон МЕЛИБОЕВ,
Наманган вилояти
ФВБ ахборот хизмати,
етакчи мутахассиси.



ҲУШЁРЛИК

Наманган вилояти "ИЕС" АЖ "Тўрақўрғон ИЕС" филиали ҳудудида бугунги кунда 49 та ер ости сув олиш манбалари мавжуд бўлиб, уларнинг соз ҳолатда бўлиши "ИЕС" АЖ "Тўрақўрғон ИЕС" филиали ОЙХТТЕБ ходимлари томонидан доимий равишда ўрганиб борилмоқда.

Жорий йилнинг ўтган даври мобайнида объект ҳудудида "ИЕС" АЖ "Тўрақўрғон ИЕС" филиали ОЁХТТЕБ томонидан ўтказилган ўрганишлар давомида айрим ер ости сув олгичлар носоз ҳолатда эканлиги аниқланган.

Мавжуд камчиликлар юзасидан ахборотномалар киритилиб, ходимлар томонидан улар бартараф этилди. Ҳозирда объект ҳудудидаги барча ер ости сув олгичлар соз ҳолатда.

Воҳобжон ВАЛИЖОНЗОДА,
"ИЕС" АЖ "Тўрақўрғон ИЕС" филиали ОЁХТТЕБ инспектори,
лейтенант.

Қашқадарё вилояти ФВБ ва Қарши шаҳар ФВ бўлими ҳамкорлигида Қарши марказий буюм савдо комплекси мажмуасида шартли ёнғинни бартараф этиш, инсонларни қутқариш ва биринчи ёрдам кўрсатиш юзасидан ўқув-амалий машғулот бўлиб ўтди.



Гузор туманида тегишли хизматлар ҳамкорлигида "Куйдирги" касаллиги тарқалишининг олдини олишда бўйича ўтказилган кўргазмали семинар бўлиб ўтди.

МУҲИМ МАВЗУДА

Икки босқичда ташкил этилган ушбу тадбирда масъуллар томонидан туман ҳудудида "Эпидемиологик ва эпизоотологик" вазият юзасидан маълумот берилиб, жараёнда мавзуга оид талаб ва таклифлар тингланди.

Семинарнинг амалий қисмида туманнинг "Чўмичли" қишлоғидаги хонадонларнинг бирида аниқланган шартли куйдирги касаллик ўчоғини белгилаш ва гумонланувчи фуқароларга тиббий хизмат кўрсатиш тартиблари амалда кўрсатиб ўтилди.

М.МАЛЛАЕВ,
Қашқадарё вилояти ФВБ РК ва ТБМТЕБ
инспектори, кичик сержант.

ЭНГ ЯХШИ

КИТОБХОН ТАНЛОВИ



Ангрэн шаҳар ахборот- кутубхонасида "Қамчиқ" махсус қидирув, ёнғин-қутқарув бошқармаси ходимлари, авария, қутқарув ва ёнғин-қутқарув отрядлари ўртасида "Энг яхши китобхон" танлови ўтказилди.

Танлов иштирокчилари "Бадий асарлар билимдонни" ҳамда "Темур Тузуклари" шартлари бўйича ўзаро беллашдилар.

Якуний натижаларга кўра, қутқарув отряди жамоаси 1-ўринни қўлга киритди. Ёнғин-қутқарув отряди 2-ўрин ҳамда бошқарма ходимлари 3-ўринга лойиқ қўрилди.

Ғолибларга диплом ва эсдалик совғалари топширилди.

Б.ХАЛИКОВ,
"Қамчиқ" МКҒКБ бўлим бошлиғи, майор.

ТУНГИ МАШҒУЛОТ

Машғулот жараёнида содир бўлган ёнғин жойида фуқароларни қутқариш, жабрланганларга биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш, фуқароларни эвакуация қилиш ва турли фавқулодда вазиятларда тўғри ҳаракат қилиш бўйича билимлар синовдан ўтказилди. Якунда йўл

қўйилган ҳато ва камчиликлар муҳокама қилинди.

М.ОСТОНОВ,
Қашқадарё вилояти ФВБ бошлиғи
биринчи ўринбосари – Штаб бошлиғи,
подполковник.

НАФАҚАГА КУЗАТИЛДИ



Фавқулодда вазиятлар вазирининг тегишли буйруғига асосан, капитан Феруза Химматова нафақага кузатилди.

"Навоий кон-металлургия комбинати" АЖ ва "Навоийуран" ДК Объектларида Ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш маркази мажлислар залида бўлиб ўтган тадбирда у билан елкама-елка хизмат қилган бир гуруҳ ҳарбий хизматчилар ва марказ раҳбарияти томонидан илиқ сўзлар айтилди. Сўзга чиққан

лар томонидан меҳнат қилган даврларидаги тассуротлар хотирланиб, фавқулодда вазиятлар тизимида кўп йиллар намунали хизмат қилганлиги, шунингдек, бир неча маротаба давлат мукофотларига сазовор бўлганлиги хусусида сўз борди.

Маъруфжон ХАЙИТОВ,
НКМК АЖ ва "Навоийуран" ДК
ОЁХТТЭМ кичик инспектори,
катта сержант.

ЎРГАНИШ ВА НАЗОРАТ

Наманган шаҳар ФВ бўлими томонидан "Сардоба бозори" ва "Чорсув универсал деҳқон" бозорларида тунги ўрганишлар ўтказилди.

Унда бозорлар ҳудудида фаолият кўрсатиб келаётган тадбиркорлар томонидан электр жиҳозларидан фойдаланишда ёнғин хавфсизлиги қоидаларига риоя қилиш, тунда ишчи ҳолатда қолдирилган ҳар хил турдаги совитиш жиҳозларини қаровсиз қолдирилмаслик, шунингдек, махсус транспорт воситалари ҳаракатини чекловчи сунъий тўсиқлар ўрнатиб олин-

маслиги юзасидан қўшимча йўриқномалар берилди. Аниқланган камчиликларни ўз ўрнида бартараф этиш чоралари кўрилмоқда.

Исломжон МЕЛИБОЕВ,
Наманган вилояти ФВБ ахборот
хизмати етакчи мутахассиси.

Искандар НУРАЛИЕВ,
Наманган шаҳар ФВ бўлими бошлиғи
ўринбосари, капитан.



Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida "Qutqaruvchi ayollar forumi" o'tkazildi.

Forumning 1-kuni hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalardan tashrif buyurgan ishtirokchi xotin-qizlar Fuqaro muhofazasi institutida kutib olinib yo'riqnoma va yo'qlamadan o'tkazildi. Shu kunning o'zida mutaxassislar tomonidan "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazilib, g'oliblar aniqlandi.

Natijalarga ko'ra, 1-o'rinni Toshkent viloyati FVB, 2-o'rinni Toshkent shahar FVB, 3-o'rinni Farg'ona viloyati FVB va Buxoro viloyati FVB jamoalari qo'lga kiritishdi.

Forumning 2-kuni kun tartibiga asosan, "Qutqaruvchi ayollar forumi"ning ochilish marosimi o'tkazildi. Tadbirda Favqulodda vaziyatlar vazirining birinchi o'rinbosari polkovnik S.Zuparov, Respublika Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi O.Parpiboyevlar ishtirok etib, ma'ruza qildilar. Shuningdek, Favqulodda vaziyatlar vazirining buyrug'i bilan tasdiqlangan "Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida xotin-qizlar

MASLAHAT KENGASHLARI TUZILMOQDA

masalalari bo'yicha maslahat kengashi faoliyati to'g'risidagi nizom" taqdimot qilindi. Tadbir yakunida tizimda fidokorona xizmat qilib kelayotgan harbiy xizmatchi va xizmatchi ayollar tashakkumoma va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Shundan so'ng, barcha ishtirokchilar kun tartibidagi pazandachilik sharti bo'yicha bellashdilar. Jamoalar ikki guruhga bo'linib, milliy taom osh va salat, karvin tayyorlash bo'yicha o'z mahoratlarini ko'rsatishdi. Natijalarga ko'ra osh tayyorlash bo'yicha 1-o'rinni Toshkent shahar FVB, 2-o'rinni FVV Akademiyasi, 3-o'rinni Jizzax viloyati FVB va Xorazm viloyati FVB xodimlari egallashdi. Karvin tayyorlash bo'yicha esa 1-o'rin Samarqand viloyati FVB, 2-o'rin Respublika Seysmoprognostik markazi, 3-o'rin Buxoro viloyati FVB va Farg'ona viloyati FVB vakillariga nasib qildi.

Kunning ikkinchi yarmida, ishtirokchilar sportning "Volleybol", "Badminton", "Stol tenisi" va "Shaxmat" turlari bo'yicha bellashdilar. Natijalarga ko'ra, "Volleybol" sport turi bo'yicha 1-o'ringa Toshkent viloyati FVB, 2-o'ringa Sirdaryo viloyati FVB, 3-o'ringa Namangan viloyati FVB va Surxondaryo viloyati FVB xodimlari munosib ko'rilgan bo'lsa, "Badminton" sport turi bo'yicha 1-o'rinni Shahrisabz "Temurbeklar maktabi", 2-o'rinni "Qamchiq" MQYQB, 3-o'rinni Samarqand viloyati FVB jamosi egalladi.

"Stol tenisi" sport turi bo'yicha 1-o'rinni Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB, 2-o'rinni Buxoro viloyati FVB, 3-o'rinni Toshkent shahar

FVB, "Shaxmat" bo'yicha esa 1-o'rinni Farg'ona viloyati FVB, 2-o'rinni Navoiy viloyati FVB, 3-o'rinni Qashqadaryo viloyati FVB jamoalari qo'lga kiritdi.

Qolaversa, forum doirasida vazirlik Markaziy apparati xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi raisligiga polkovnik G.Turexojayeva saylangandi. Maslahat kengashi raisi tomonidan hududlar kesimida joylarga chiqqan holda, navbatmanavbat o'rganish ishlari amalga oshirilishi va mavjud muamolarni joyida bartaraf etish hamda ularga amaliy yordam ko'rsatilishi lozimligi belgilandi.

Ayni paytda hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalarda ham Maslahat kengashlari tuzilib, unga rais va a'zolari saylash tadbirlari yuqori saviyada o'tkazilmoqda.



M.MINGBOYEVA,
FVV xotin-qizlar masalalari bo'yicha
Maslahat kengashi raisi o'rinbosari,
kichik serjant.

XAVFSIZLIK QOIDALARI

Andijon viloyati Izboskan tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan bir necha bor ogohlantirish, tushuntirish ishlari olib borilishiga qaramasdan, daryo, soy, kanal, anhorlar bo'yida istiqomat qiluvchi fuqarolar yosh bolalarini nazoratsiz qoldirib, taqiqlangan joylarda cho'milishlari hamon kuzatilmoqda.

Cho'milish bilan bog'liq muhim hodisalarning oldini olish maqsadida tuman hududidagi ruxsat etilmagan suv havzalarida cho'milishni qat'iy taqiqlash choralarini ko'rish, mavjud kanal, daryo, suv havzalarini tekshirish va targ'ibot ishlarini kuchaytirish, hamkorlikdagi tashkilotlar bilan birga mahalla fuqarolar yig'inlari hududidan oqib o'tuvchi "Katta Farg'ona" kanali hamda "Tentaksoy" atrofida yashovchi aholi o'rtasida "Cho'milishda ehtiyotkorlik – xavfsizlik garovi" shiori ostida targ'ibot tadbirlari o'tkazilib, fuqarolarga cho'milish xavfsizligi qoidalarini targ'ib etuvchi rangli eslatmalar tarqatish orqali tushuntirish-targ'ibot ishlarini olib borilmoqda.

I.KARIMOV,
Izboskan tumani FV bo'limi A va XMQB
boshlig'i, kapitan.

Namangan shahar "Do'stlik" bozorida yong'in xavfsizligini taminlash bo'yicha hamkorlikdagi xizmatlar bilan yong'in o'chirish amaliy-taktik mashg'uloti o'tkazildi.

"DO'STLIK" DA MASHQ

Shartli ravishda yuzaga kelgan yong'inni bartaraf etishda bozor ishchi xodimlari va fuqaro muhofazasi tuzilmalarining harakatlari amalda ko'rsatildi.

O'quv mashqining asosiy maqsadi sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in va favqulodda vaziyatlarda kuch vositalarini jangovar shayligini tekshirish hamda bunday vaziyatlarda ularning to'g'ri harakat qilishni ta'minlash, amaliy ko'nikmalarini oshirish etib belgilandi.

Ushbu o'quv mashg'uloti yakuni bo'yicha viloyat FVB xodimlari tomonidan mashg'ulotda yo'l qo'yilgan kamchiliklar va kelgusida ushbu kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan ko'shimcha tushuntirish ishlari olib borildi.

Abdunazar SOYIBNAZAROV,
Namangan viloyati FVB bo'lim boshlig'i,
podpolkovnik.

Islomjon MELIBOYEV,
boshqarma axborot xizmati yetakchi
mutaxassisi.

QISMDA TADBIR

"Qamchiq" MQYOQB qutqaruvchilari tomonidan dovon hududidagi harbiy qismlarning birida profilaktika ishlari o'tkazildi.

Ushbu tadbir davomida harbiy xizmatchilarga birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan belgilangan maqsadlardan tashqari foydalanish mumkin emasligi, xonalarda joylashgan yong'in o'chirish vositalarini ishlatish ehtimoli yuqori bo'lgan va ko'rinadigan joylarda o'rnatilishi ularga olib boruvchi yo'llarni to'sib qo'ymaslik yog'ingarchilik ta'sirlaridan himoya qilingan maxsus stendlarda jamlangan bo'lishi tushuntirildi.

B.ANORQULOV,
"Qamchiq" MQYOQB otryad
komandiri, mayor.



Namangan viloyati FVB Kichik hajmli kemalar inspeksiyasi tomonidan Pop tumani hududidan oqib o'tuvchi Sirdaryo daryosida kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanish bo'yicha nazorat tartibidagi reydtadbirlari o'tkazildi. Tadbir davomida ogohlantirish va tushuntirish ishlari olib borildi. Shuningdek, navbatdagi texnik ko'rik tadbirlari tashkil etildi.

Rustamjon EGAMBERDIYEV,
Namangan viloyati FVB Kichik hajmli
kemalar inspeksiyasi bosh inspektori.

YIG'ILISH

FVV Maxsus muhandislik-qurilish boshqarmasi xotin-qizlari va Toshkent shahar M.Ulug'bek tumani Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'limi mas'ul xodimi ishtirokida boshqarma xotin-qizlar Maslahat kengashi tashkil etilib, kengash raisi, rais o'rinbosari va kotiblar saylandi.



Yig'ilish so'ngida tuman oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'limi mas'ul xodimi kelgusida o'zaro hamkorlik ishlarini birgalikda olib borishni taklif kiritdi.

Sh.AXMADALIYEV,
FVV Maxsus muhandislik-qurilish
boshqarmasi bo'lim boshlig'i, mayor.

Farg'ona viloyati FVBda xotin-qizlar masalalari yuzasidan maslahat kengashini saylash bo'yicha yig'ilish o'tkazildi.

TUSHUNCHALAR BERILDI

Yig'ilishga taklif etilgan viloyat Oila va xotin-qizlar boshqarmasi bosh mutaxassisi Yorqinoy Sharipova hamda Farg'ona shahar oxila ayollar harakati etakchisi Shaxodatxon Axunovlar tomonidan maslahat kengashini tashkil etishdan maqsad, uning vazifalari hamda boshqarma tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, gender tengligini ta'minlash siyosatining mazmun-mohiyati, ahamiyati to'g'risida tushunchalar berildi.

Tadbir so'ngida ovoz berish yo'li orqali saylangan maslahat kengashi raisi va a'zolarining kelgusidagi faoliyatiga omad tilandi.

Aholidin ALIJONOV,
Farg'ona viloyati FVB axborot xizmati
rahbari, kapitan.

MUHIIM TADBIR

Chust tumani hokimligi, tumangaz, elektr tarmoqlari korxonasi hamda tuman tibbiyot birlashmasi xodimlari ishtirokida "Zarafshon" MFYda tadbir tashkil etildi. Ushbu hududdagi tadbirkorlik subyektlarida hamda xalq xo'jaligi maskanlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar, yong'in, chaqnash, botulizm va is gazidan zaharlanishning oldini olish bo'yicha fuqarolarga eslatma tarqatildi.

Furqat PANOXIDDINOV,

Chust tumani FV bo'limi Pva NB katta inspektori, leytenant.



SINOV

Pop tumani "Pop" chegara-bojxona postida "Sanksiyalanmagan ionlashtiruvchi nurlanish manbasini topilishi bilan bog'liq radiatsiyaviy avariyaning chegaralash va bartaraf etishda FVDT tegishli xizmatlari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning hamkorlikdagi harakatlari" mavzusidagi ko'rgazmali maxsus-taktik o'quv mashqi tashkil etildi.

Unda viloyat hududiga ionlashtiruvchi nurlanish manbasi chegara hududi orqali kirib kelayotganda topilishi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda viloyat FVDT xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari sinovdan o'tkazildi.

Ilhomjon XASANOV,

Namangan viloyati FVB bo'lim xodimi, kapitan.

AMALIY SEMINAR

Respublika Allergologiya markazida yong'in xavfsizligiga rioya qilish borasida Olmazor tumani FV bo'limi tomonidan amaliy-taktik smenar o'tkazildi.

Ushbu tadbir davomida favqulodda vaziyat hamda yong'in yuz berganda bartaraf qilish usullari, is gazidan zaharlanishning oldini olish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarning kelib chiqishiga yo'l qo'yimaslik, zilzila, sel kelishi, qor ko'chishi, kuchli shamol esishi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar haqida tushuntirishlar berildi.

J.YULDASHEV,

Olmazor tumani FV bo'limi 1-YQQ smena boshlig'i, mayor.



DAVR TALABI

Namangan viloyati FVBda tizimda xizmat qilayotgan xotin-qizlar bilan uchrashuv o'tkazildi.

Unda asosiy e'tibor, boshqarma tizimida xizmat qilayotgan xotin-qizlar kengashi faoliyatini samaradorligini oshirish, xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, oila mustahkamligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar va mavjud muammolarni hal etishga qaratildi.

D.RAJABALIYEV,

Namangan viloyati FVB Kadrlar bo'limi xodimi, katta leytenant.

G'.ISMOILOV,

boshqarma HFXO'M boshlig'i, podpolkovnik.

Bugungi kunda Namangan viloyatida 415 ta qurilish obyektlari ro'yxatga olinib, bu obyektlarda qurilish va yong'in xavfsizligi qoida talablarining bajarilishi nazoratga olingan.

ZARUR TAVSIYA

Qurilishi rejalashtirilgan obyektlarda qurilish ishlari davomida yong'iniga qarshi tadbirlarning to'liq bajarilishini ta'minlash, ishlab chiqilgan loyiha hujjatlariga shaharsozlik sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan yong'inning oldini olishga qaratilgan tadbirlarning to'liq kiritilishi va davlat ekspertizasidan o'tkazilishi maskanlarni foydalanishga qabul qilish jarayonlarida va profilaktik ko'riklar davomida o'rganib kelinmoqda.

Masalan, viloyatda olib borilayotgan qurilish ishlari davomida uning loyiha hujjatlarida



ko'zda tutilgan yong'iniga qarshi chora-tadbirlar qay darajada amalga oshirilayotganligi doimiy ravishda nazoratga olinmoqda. Favqulodda vaziyatda insonlarni va moddiy boyliklarni evakuatsiya qilish maqsadida binoni tark etish uchun zahira eshiklari mavjudligiga e'tibor berilmoqda.

Xamidullo YULDASHYEV,

Namangan viloyati FVB SHSPB boshlig'i, mayor.



UCHRASHUV

Buxoro tumanida "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Tadbir davomida yoshlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash borasida olib borilayotgan davlat siyosati va ular uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida so'z yuritildi. Shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning muammo va takliflarini o'rganish, bandligini ta'minlash yuzasidan takliflar eshitildi.

Harbiy xizmatga ishga kirish bo'yicha maslahatlar va yo'riqnomalar berildi. Shuningdek, yoshlarning qutqaruvchi kasbiga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida yong'in-qutqaruv asbob anjomlarining ko'rgazmasi tashkil etildi.

N.NURULLAYEVA,

Buxoro viloyati FVB axborot xizmati xodimi.

HAMKORLIKDA

Andijon viloyati FVB qutqaruvchilari hamda Andijon davlat tibbiyot instituti talabalari bilan birgalikda zilzila va turli baxtsiz hodisalar aks ettirilgan hayotiy sahna ko'rinishlarida birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha bilimlari amalda tekshirildi.



Bu vaziyatda bo'lajak shifokorlarga o'zlarini yo'qotmagan holda bemorlarga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatishlari vazifasi yuklatildi. Ushbu vaziyatda bo'lajak shifokorlarning vazifalarni to'g'ri bajarishi, xato va kamchiliklar tahlil qilindi.

Xayotbek RAHIMOV,

Andijon viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.

BOZORLARDA...

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumanida hafta davomida tuman FV bo'limi, veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi, tuman SEOM hamda tegishli tashkilotlar xodimlari bilan birgalikda "Birlashgan baraka dehqon bozori" MCHJ hamda "Iskovot barhayot servis" MCHJ hududida faoliyat olib borayotgan ovqatlanish shoxobchasi, go'sht savdo rastasi, turli tuzlamalar sotish rastasida, oziq-ovqat savdo rastalarida faoliyat olib borayotgan sotuvchilar o'rtasida profilaktik tushuntirish ishlari o'tkazilib, ishchi xodimlarga ishlash jarayonida sanitariya gigiyena qoida va me'yor talablariga rioya etgan holda ish olib borishi to'g'risida tushuntirishlar berildi.

"Nanay dehqon bozori" MCHJ hamda "Zarkent savdo baraka" MCHJ hududida fuqarolar tomonidan sanitariya va gigiyena qoida va me'yorlariga rioya etmagan holda uy sharoitida tayyorlangan sifati va xavfsizligi kafolatlanmagan turli tuzlamalar (sabzi, karam, pomidor, bodiring) hamda kalla go'shti sotish savdosi bilan shug'ullanayotgan sotuvchilar ushbu oziq-ovqat maxsuloti savdosiga yo'l qo'yimaslik to'g'risida qat'iy ogohlantirildi.

Sobirjon OBIDDINOV,

Yangiqo'rg'on tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, leytenant.

Shahzodbek JUMANALIYEV,

bo'lim bo'linma kichik inspektori, kichik serjant.



E'TIBOR

Qorao'zak tumani FV bo'limi tomonidan aholining xavfsizligini ta'minlash va suvda cho'kish bilan bog'liq noxush holatlarning oldini olish maqsadida bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tumandagi "Quo'anish jarma" va "Yesimo'zak", "Dosliq" kanallaridagi odamlar ommaviy cho'miladigan joylarga suvda cho'milishni ta'qiqlovchi belgilar o'rnatildi. Tuman hokimi tomonidan tasdiqlangan ishchi guruh a'zolari bilan birgalikda suvda cho'milish ta'qiqlangan kanal va ariqlarda reydtadbirlari amalga oshirilmoqda. Reydtadbirlari davomida fuqarolarga bu havzalar cho'milishga moslashtirilmaganligi, ya'ni, cho'milish uchun ruxsat etilgan o'rinlarda xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda cho'milish kerakligi to'g'risida tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

D.DAULETBAYEV,

Qorao'zak tumani FV bo'limi boshlig'i, mayor.

A.AMIRXANOV,

bo'lim bo'linma boshlig'i, katta leytenant.

JASORAT JAVOBSIZ QOLMAYDI



Buxoro viloyati FVB hududida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hamkasblariga o'mak bo'lib kelayotgan xodimlarni taqdirlash marosimi o'tkazildi. E'tirof etilganidek, Yangi O'zbekistonda barcha sohalarda bo'lgani kabi FVV tizimida ham tub yangilanishlar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar, qutqaruvchi va xodimlar favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda oqibatlarini bartaraf etish, yong'in xavfsizligini ta'minlashdek o'ta muhim vazifalarni sharafla bajarib kelmoqdalar.

Tadbirda faoliyatida alohida jonbozlik ko'rsatayotgan boshqarma va uning quyi tuzilmalari xodimlariga fidokorona mehnati, Vatanimiz va xalqimizga sadoqati uchun chuqur minnatdorlik bildirildi. O'tgan davrda murakkab yong'inlarni bartaraf etishda fuqarolarning hayoti va moddiy boyliklarini asrashni o'z hayoti va sog'lig'idan ustun qo'yan mard va jasur yong'in qutqaruvchilari pul mukofotlari bilan taqdirlandilar.

I.MATCHANOV

*Buxoro viloyati FVB boshlig'ining
birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i,
podpolkovnik.*

TARG'IBOT

Qashqadaryo viloyati FVB tomonidan Qarshi shahridagi mahallalar hududidan oqib o'tuvchi daryo hamda ariqlarda o'zboshimchalik bilan tashkil etilgan cho'milish manzillarida mavsum boshidan buyon qariyb 150 marotaba nazorat tadbirlari amalga oshirildi. Ushbu reydlar va profilaktik tadbirlarga qaramasdan ayrim fuqarolar o'z farzandlarini nazoratsiz qoldirib, ariq va daryolarda cho'milishiga loqaydlik bilan qaramoqda.

Tadbirlarda fuqarolar bilan ta'qiqlangan hududlarda cho'milishning ayanchli oqibatlarini haqida tushuntirish ishlari olib borilib, voyaga yetmagan yosh bolalarning otanalari bilan profilaktik suhbatlar ham tashkil etilmoqda.

T.TURSUNBAYEV,

*Qarshi shahar FV bo'limi bo'linma boshlig'i, katta
leytenant.*

Tizimli ishlar

Yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida tashkil etilayotgan davra suhbatlari ko'rgazmali chiqishlar davomida yong'inlarni keltirib chiqaruvchi holatlardan ehtiyot bo'lish kerakligi tushuntirilib, nosoz elektr moslamalaridan foydalanmaslikni targ'ib qiluvchi eslatmalar tarqatildi. Qolaversa, tegishli xizmatlar bilan hamkorlikda aholi yashash xonadonlarida uymay yurib profilaktik tadbirlar o'tkazildi, fuqarolarga elektr va gaz uskunalardan foydalanishda ularning sozligiga, birinchi galda, sovitish konditsionerlari va shu kabi boshqa maishiy elektr jihozlardan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilishga chaqiribdi.

G. RO'ZIBOYEV,

*Toshkent shahar FVB kichik inspektori,
kichik serjant.*

Hozirda mamlakatimizda aholiga qulay sharoitlar yaratish maqsadida, obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda.

BIRDAMLIK VA FAOLLIK

Ushbu ezgu va xayrli ishlarda Qashqadaryo viloyati FVB va joylardagi tarkibiy tuzilmalari ham faol ishtirok etmoqda.

Har kuni erta tongdan Qarshi shahar, Nishon, Kasbi, Mirishkor, Koson va Qarshi tumanlarining olis va chekka hududlaridagi ko'chalarga harakatlanishda qulaylik yaratish uchun tosh-shag'al to'kish va yo'llarni tekislash ishlari olib borilmoqda.

Birgina G'uzortumanining "Mevazor" mahallasidagi 1,5 kilometr ga yaqin ichki yo'llarga tosh-shag'al aralashmasi to'kilib, maxsus texnikalar yordamida tekislash ishlari olib borildi.

Sanjar NOROV,

G'uzor tumani FV bo'limi boshlig'i, mayor.

TUSHUNCHALAR BERILDI

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani FV bo'limi xodimlari hamda hamkor tashkilotlar ishtirokida "Yangibod" hamda "Turkiston" MFYlarda aholi yashash xonadonlarini kuz-qish mavsumiga tayyorgarligi ko'rib chiqildi.

Tadbir davomida avtomobillarga gaz quyish shoxobchalarida ham ishchi xodimlariga yo'riqnomalar berildi. Taqiqlangan joylarda cho'milayotgan yosh bolalar va fuqarolarga cho'milishi natijasida ko'ngilsiz holatlar yuz berishi mumkinligi tushuntirildi. Shuningdek, "Majnunol" MFY hududida qurilayotgan bino ishchilari bilan ham profilaktik suhbatlar olib borildi.

Qahramon SATTAROV,

*Namangan viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i,
kapitan.*

Abdurahmon MURODOV,

*To'raqo'rg'on tumani FV bo'limi boshlig'i
o'rinbosari, mayor.*

QIZG'IN TAASSUROTTLAR



Ayni paytda uchquduqlik bolajonlar "Sarmish" bolalar dam olish oromgohida to'rtinchi mavsumni o'tkazmoqdalar. Bolajonlarning vaqtini qiziqarli o'tkazish maqsadida, oromgoh yong'in xavfsizligini ta'minlovchi harbiy xizmatchilar va oromgoh mas'ullari bilan birgalikda "Yosh qutqaruvchi" musobaqasi o'tkazildi. Bolajonlar turli shartlarni bajarib ko'rdilar va favqulodda vaziyatlarda, yong'in sodir bo'lganda harakatlanish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish bo'yicha ko'nikma hosil qildilar. Musobaqada munosib qatnashgan bolalarga oromgoh rahbariyati tomonidan esdalik sovg'alari va faxriy yoriqlar topshirildi.

O.HIKMATOV,

*SHKB OYOXTTEB 6-YOQ qism boshlig'i
o'rinbosari, katta leytenant.*

D.ASADOV,

*SHKB OYOXTTEB P va NB kichik inspektori,
serjant.*



QURILISHDA

Kasbi tumani FV bo'limi xodimlari tashabbusi bilan tuman hududida yangidan barpo etilayotgan ko'p qavatli bino-inshootlarda quruvchi va mutaxassislar o'rtasida "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'tkazilgan profilaktik targ'ibot tadbiri har tomonlama samarali bo'ldi.

Unda soha mutaxassislari yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish va birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tartiblari bo'yicha tushuntirishlar berdilar.

Taqiqlangan joylarda cho'milish holatlarining oldini olish maqsadida tashkil etilayotgan reydlar va profilaktik tadbirlar davomida voyaga yetmagan fuqarolarga cho'milish mumkin emasligi aytiladi.

Elbek YULDOSHEV,

*Kasbi tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari,
kapitan.*

MUHOKAMA

Namangan viloyati Uychi tumanidagi "Qizil-Rovot" suv olish va uzatish inshootida ko'rgazmali maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Unda inshootda favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda aloqa va xabar berish tizimi bo'yicha tegishli xizmat tarmoqlariga tezkor xabarni yetkazish, rahbarlar tarkibiga xabar berish va ularni yig'ish, amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish, barcha bosqichlarda inshootni uzluksiz barqaror ishlashini ta'minlash bo'yicha tezkor boshqaruvni, bundan tashqari, ma'lumotlarni qabul qilish, ularni g'ratilgan tartibda rahbar xodimlarga yetkazish yuzasidan navbatchi xodimlarining tezkor harakatlari namoyish etildi.

"Qizil-Rovot" suv olish va uzatish inshootining FM tuzilmalari tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda texnologik jarayonda ishlatiladigan kuchli ta'sir etuvchi zaharli modda bo'lmish suyuq xlor natriyni sizib chiqishi bilan bog'liq avariyaning shartli ravishda bartaraf etish ishlari, jabr ko'rganlarga tibbiy yordam ko'rsatish, zararsizlantirish kabi tadbirlar o'tkazildi.

A.XOLDAROV,

Namangan viloyati FVB HFXG'M o'qituvchisi.

TASHVIQOT

Yong'in-qutqaruv qismlari shaxsiy tarkibi tomonidan favqulodda vaziyat yoki yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish tartibi va qutqaruv ishlarini tashkil etish bo'yicha yong'in o'chirish amaliy-taktik mashq va odamlar ommaviy yig'iladigan maskanlarda yong'in-qutqaruv texnikalari va vositalari namoyish etilmoqda. Yong'in xavfsizligi qoidalarini talablarini targ'ib qiluvchi eslatma, yo'riqnomalar va plakatlar tarqatilmoqda. Tekshiruv va ko'riklar davomida aniqlangan yong'in qargishi kamchiliklar bartaraf etilmoqda.

Yong'in qargishi kurashning asosiy omillaridan biri uni o'z vaqtida aniqlash va yong'in kuchayib ketmasdan oldin unga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishdir.

E.MAJIDOV,

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
administratsiyasi binosida YXTTE
kichik inspektori, oddiy askar.*

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН – МАЪРИФАТЛИ ЖАМИЯТ

Мамлакатимизда амалга оширилаётган барча соҳалардаги ўзгариш ва ислохотлар ягона мақсадга – Ўзбекистон халқи, айниқса ёшларимиз учун муносиб турмуш шароитини яратиш, одамларнинг даромади ва фаровонлигини изчил ошириб бориш, жамиятнинг ҳар бир аъзоси ўзининг интеллектуал, касб ва маънавий салоҳиятини амалга ошириши учун зарур имкониятлар яратиш беришни кўзлаб амалга оширилаётганлиги билан аҳамиятлидир. Тинч, тўкин ватанимизда Учинчи Ренессанс пойдеворини яратиш мақсад қилиб олинган. Бундай улуғвор, эзгу мақсадлар руёби таълим-тарбия ва малкали педагоглар фаолияти билан бевосита боғлиқдир. Кўп миллатли халқимиз қурмоқчи бўлган маърифатли жамият асосини ҳам илм-фан, таълим-тарбия, санъат, адабиёт, янги технология, инновациялар ташкил этади.



Бу аввало, маънавий-ахлоқий қадриятларимизни давр талабларига мос равишда бойитиш ва ривожлантириш, шу орқали жамиятнинг маданий ва маърифий юксалишига эришиш имконини бермоқда. Ўз навбатида, жамият аъзоларининг онги ва тафаккурини, ҳаёт фалсафаси ва дунёқарашини кенгайтиришга хизмат қилмоқда.

Бунда, аҳоли, айниқса, ёшларнинг интеллектуал салоҳияти ва дунёқарашини юксалтириш, ватанпарварлик, халққа муҳаббат ва садоқат туйғуси билан яшайдиган баркамол авлодни тарбиялаш – олий мақсадга айланган. Илм-фан, маданият ва санъат, адабиёт ва бадий ижод соҳаларининг мамлакатимиз тараққиётидаги ўрни ва таъсири янада оширишга қаратилган алоҳида дастурлар ишлаб чиқилиб, амалиётга тадбиқ қилинмоқда. Ижодкор зиёлиларга доимий эътибор қаратиш, уларни моддий ва маънавий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, меҳнат ва яшаш шароитларини яхшилашга қаратилган ишлар эса таъсирга лойиқдир.

Қайд этиш жоизки, ҳудудларнинг маданий юксалиши, халқ хунармандчилигини раванқ топтиришга қаратилган манзилли ишларни тизимли асосда олиб борилмоқда. Диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувликни таъминлаш, фуқароларимизни турли мафкуравий таҳдидлардан, зарарли оқим ва ғоялардан ҳимоя қилиш масалаларига жиддий эътибор қаратилмоқда. Муқаддас динимиз, эзгу фазилатларимизнинг мужассам ифодаси сифатида янада қадрланмоқда. Юртимизда турли диний конфессиялар учун зарур шароитлар яратилмоқда. Маънавият, маърифат ва ижод кесишган нуқтада зиё пайдо бўлиши ҳаммамизга яхши маълум. Илм-фанга интилиш, ўз оромидан воз кечиш, янгилик яратишга ўзида куч топа билиш учун эса маънавий етуклик талаб этилади.

Шу ўринда, мамлакатимизда китобхонлик маданиятини юксалтириш ва амалий натижага эришишда бир қатор ишлар қилинганини алоҳида таъкидлаш жоиздир. Китоблар инсонларга яхши ва муносиб яшашни, қалби пок ва бир-бирига меҳрибон бўлишни, меҳнатни севишни ўргатади. Кўп яхши китоблар ўқиган киши ўзини кучли, ақлли, инсонпарвар сезади.

Ўқишдан тўхтаган одам фикрлашдан ҳам тўхтади, деган эди донишмандлардан бири. Бугун бу ҳикматнинг нечоғлик ҳаётий ҳақиқат эканини атрофимизда рўй бераётган воқеа-ҳодисалар мисолида ҳам англаб турибмиз. Тадқиқотлардан маълум бўлишича, бадий асар ўқиган одам ҳаётда ҳам бошқаларнинг ҳис-туйғуларини яхши тушунар экан. Эмори университети олимлари китоб ўқиган инсоннинг ақлий салоҳияти бир неча ой давомида юқори ҳолатда бўлишини исботлашди. Тадқиқот муаллифлари китоб ўқиш миёдаги асаб толалари сонини оширишини таъкидламоқда. Тадқиқотларда аниқланишича, китоб ўқишни хуш кўрадиган болалар мактабда ҳам аълочи бўлади. Улар грамматикани ҳам, математикани ҳам яхши ўзлаштиради. Демак, китоб доимий ҳамроҳингиз бўлса, ҳаётда асло адашмайсиз. Иншо ёзиш эса, яна бир бор таъкидлаймиз, китоб ўқишга, пировардида мамлакат аҳолисининг илмини, саводхонлигини, маданиятини, маънавий ва моддий бойлигини оширишга хизмат қилади.

Азалдан маънавият, маданият бешиги бўлган Кўҳна Шарқ ўз бағрида минглаб даҳоларни, донишманд, алломаларни етиштирди. Бу замин тупроғида жуда кўплаб кашфиётлар қилинган. Бу ажиб маскан кучоғида қанчадан-қанча асрларга татигулик шоҳ асарлар яратилди, мангуликка юз тутди. Инсоният учун руҳий туганмас озуқа манбаини ўтади. Айтиш жоизки, халқимизнинг ўзига хос турмуш тарзи, тафаккури ва дунё қарashi, ҳаётга, воқеликка муносабатининг ифодаси бўлган халқ оғзаки ижоди намуналари “Алпомиш”, “Шашмақом” каби санъат дурдоналари, Жалолиддин Мангуберди, Амир Темури каби миллий қаҳрамонларимизнинг ибратли ҳаёти миллий маънавиятимиз озиқландирган манбалардир.

Буюк бобокалонимиз Алишер Навоий ёшлигидан илм ўрганишга, китобга меҳр қўйган. Тинимсиз мутоалалар сабаб, у йигирма саккиз ёшида мукамал билимлар эгаси, мутафаккир, эл-юртга танилган шоир ва тажрибали, инсонпарвар давлат арбоби даражасига эриша олган. Дунё халқларини ўз илми билан ҳайратга солган Абу Али ибн Сино ўн олти ёшидаёқ Қуръони Каримни ёддан билган ва тиббиёт илмига ихлос қўйиб, табиб

мақомини олган. Бу каби инсонлар навқиронлик даврининг қадрига етиб, фурсатни ғанимат билиб, уни билим ва ҳунар ўрганиш учун сарфлаганлар. Шунинг учун оламшумул даражадаги фозиллар қаторидан ўрин олганлар. Маънавият минглаб йилларда пайдо бўлади, шаклланади, мустаҳкамланади. Маънавиятга қанчалик кучли эътибор қаратилса, шунчалик юксалиб бораверади. У одамларнинг ҳар бир хатти-ҳаракати, фикрлаш тарзи, ўй-хаёллари сўзга айланганида намоён бўлади. Халқимизни юксак тараққиёт сари етаклаётган Президентимиз томонидан маънавият ва маърифат соҳасида олиб бораётган ислохотлар аҳоли, айниқса, ёшларимизни тенгсиз ютуқларга илҳомлантирмоқда.

Бугунги ёшларимизнинг аксарияти комил ишонч билан айта оламизки, ажодларимизга муносиб авлод бўлишга интилоқда. Бугунги кун ёшлари пахта даласидан, йигим-теримдан озод этилиши, шу билан бирга, ўқитувчилар ҳам бу ишлардан озод бўлиши нур устига аъло нур бўлди, десак муболага бўлмайди. Кейинги йилларда ўқитувчи-педагогларга алоҳида ғамхўрлик кўрсатилиб, қатор имтиёзлар берилгани уларнинг таълим-тарбия сифати ва самарадорлигини оширишга масъулият туйғусини юксалтирди. Педагогларнинг мавқеини мустаҳкамлади. Замонамиз ёшлари ҳам бу ғамхўрликларга жавобан ўз иқтидори ва истеъдодларини намойиш этиб келмоқда. Кўпгина ёшларимиз тил ўрганиб, турли сертификат ва имтиёзларни қўлга киритиб, грант асосида дунёнинг энг нуфузли олийгоҳларига ўқиб келмоқда. Ёшларимиз орасида ўта қобилиятли, истеъдодлилари кўп. Спорт соҳасида дейсизми, IT соҳасида дейсизми, санъату илм дейсизми барча-барчасида илғор.

Дарҳақиқат, буюк мутафаккир Абдулла Авлонийнинг “Ҳар бир миллатнинг саодати, давлатнинг тинчи ва роҳати ёшларнинг яхши тарбиясига боғлиқдир” деган гапида ҳам чуқур маъно бор. Демак, ўқитувчилар зиммасига келажак буюк давлат учун комил, ҳар томонлама етулик, баркамол, маънан ва ахлоқан пок, ватанпарвар ва инсонпарвар авлодни тарбиялашдек ўта муҳим, ғоят шарафли вазифа қўйилган. Айниқса, юксак интеллектуал салоҳиятли, замонавий билим

ва малакага эга, янги дунёқараш ва мустақил фикрлаш даври бўлган бизнинг асримизда бу масала янада долзарб аҳамият касб этаётир. Шунингдек, миллий анъаналаримизни асраб-авайлаш ва бойитиш мақсадида Мақом, Бахшичилик ва Аския санъати марказлари ташкил этилди.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотлар ва бунёдкорлик ишлари натижасида халқимизнинг онгу тафаккури, дунёқарashi ўзгармоқда. Инсоннинг жамиятдаги ўрни унинг моддий бойликлари билан эмас, балки юксак маънавий қиёфаси билан белгиланади. Агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир. Зеро, маърифатли жамият ҳар қандай ислохотларга қодир бўлади.

Бинобарин, аҳолисининг ярмидан кўпроғи ёшлардан иборат бўлган мамлакатда ёшларга оид давлат сиёсатини изчил амалга ошириш, ёш авлодни ҳар томонлама етулик ва баркамол, интеллектуал салоҳиятли, ўз қатъий позициясига эга, юртда амалга оширилаётган ислохотларга бефарқ бўлмаган, юртнинг эртанги муносиб келажак учун дахлдорликка тайёр, мақсадга интилувчан, серғайрат, ватанпарвар, садоқатли, комил шахслар сифатида тарбиялаш Ўзбекистонни дунёнинг энг ривожланган давлатлари сафидан ўрин олишининг муҳим омилдир.

Ёшлик ҳар бир инсонга ўзлигини англаш, комилликка интилиш, ҳаётда ўзининг муносиб ўрнини топиши учун бериладиган катта имкониятдир. Бугунги маърифатли жамият бунёдкорлари ватанимиз келажак, Янги Ўзбекистон эртаси уларнинг қўлида эканлигини ҳис қилмоқлари даркор. Бугунги жамиятдаги мавқе масъулиятларини ошириш учун ҳар бир дақиқани ғанимат билиши, қайтарилмас ёшликнинг қадр-қимматини тўғри баҳолашлари ҳамда Учинчи Ренессанс бунёд бўлишига астойдил камарбаста бўлишлари лозим. Умуман олганда, инсонни ҳамиша эзгуликка ундайдиган, комилликка етказадиган бу унинг юксак маънавиятидир. Маънавият соҳасини ислоҳ қилиш нафақат алоҳида шахсларни, балки халқни, жамиятни юксак тараққиёт сари етаклайди.

Анвар ҚОБИЛОВ *тайёрлади.*

ХАВФЛИ БЎЛГАН касблар айтилди

Айрим касблар ходимларнинг руҳий саломатлиги учун хавфлидир, дейди россиялик психолог Наталья Наумова. Бу доимий стресс, ортиқча юк ва ҳиссий чарчаш билан боғлиқ.

Бунга биринчи навбатда хавфли касблар вакиллари киради. Булар ҳарбий хизматчилар, полициячилар, ўқувчилар ўт ўчирувчилар, қўриқчилар. Улар жамиятда муҳим ўринга эга ва бошқаларнинг ҳаётини сақлаб қолиш учун курашади. Бундай касблар хавф билан тўла бўлиб, ишчилар кўпинча соғлиғини ва ўзларини унутишади.

Ижтимоий касб вакиллари ҳам (масалан шифокорлар) чарчаш ва стрессдан азият чекиши мумкин. Офис ва ва корхоналарда ишлаш, агар у тўғри ташкил этилмаган бўлса ёки жамоада ёмон муносабатлар мавжуд бўлса, руҳий саломатликка таъсир қилиши мумкин. Бундан ташқари, жамоат транспорти ва такси ҳайдовчилари руҳий саломатлик учун зарарли, деб топилди. Чарчамас-



лик учун ишдан ташқари дам олиш ва қизиқарли сеvimли машғулотларига эга бўлиш учун етарли вақт ажратиш керак. Психолог бундай касб эгаларида дўстлар ва қариндошлар билан тез-тез мулоқот қилишни тавсия қилди. Агар бирор киши ичида кескин руҳий таранглик тўпланиб бораётганини ҳис қилса, ишдан танаффус қилиб, ўз соғлиғи учун ғамхўрлик қилгани маъқул.

“Шифо инфо” газетасидан олинди.

Инсон организми эснаш жараёнида бир қанча гармонларни ишлаб чиқаради, қон айланиши фаоллашиб, қон босими меъёрлашади. Нью-Йорк штати университети шифокорлари сабабсиз эснаш ва қондаги кислород даражаси ўртасидаги боғлиқликни аниқлашди. Унга кўра, бу мия ҳароратига таъсир қилиб, совитишга ёрдам беради. Чунки инсон танаси эснаганда нафақат катта ҳажмдаги ҳавони ютади, балки бир вақтнинг ўзида бош суяги атрофидаги мушакларни рефлексли равишда чўзади. Бу бош қисмига совуқ қон оқими киришига сабаб бўлади.



ЭСНАШ МИЯНИ СОВИТАДИ

Шифокорлар китоб мутолааси жуда фойдали эканини ҳамда библиотерапия билан даволаш усулини исботлашган. Ливерпуль университети олимлари тажрибага жалб этилган кишиларнинг Шекспир асарларини ўқиётган чоғида бош миясида кузатилган фаол ўзгаришларни кайд этишган.

МУТОЛАА – ШИФО ВОСИТАСИ

Библиотерапиядаги асосий талабга риоя этиш лозим, яъни асар қизиқарли бўлиши, ўқиш жараёни фақат ҳузур-ҳаловат бахш этиб қолмай, фикрлашга ҳам ундамоғи, ўйлашга мажбур этмоғи керак. Асар бош қаҳрамонни ҳаётингизда қачондир рўй берган ва ҳануз оромингизни ўғирлаб келаётган вазиятга тушиши мақсадга мувофиқ. Шунингдек, китоб хотиржамлик ва кўтаринки кайфият бағишлаши, муаммо кўнгилдагидай ҳал бўлишига ишонч уйғотиши, ёруғ таассурот қолдириши зарур.

Мумтоз асарлар мутолааси киши руҳий зарбаларга учраганда, марказий асаб тизими бузилганда, нев-

роз ҳолатида, ноҳуш хотираларни унутиш қийин кечадиган пайтларда ўзига хос муолажа бўлади. Детектив ва саргузашт асарлар диққат-этибор, қунт-сабот ва кузатувчанликни чиниқтиради. Мураккаб сюжетлар маҳзун ўй-хаёл ва ташвишлардан чалғитади.

Илмий фантастик асарлар юз бериш эҳтимоли бор нарсалар ҳақидаги тасаввурни кенгайтиради, ўй ва истакларни чўчимай хаёлдан ўтказиш, бошқаларда ҳам шундай фикр ва истак бўлиши мумкинлигини тан олиш имконини беради.

Назмий асарлардаги аниқ ритм организмда кечаётган жараёнлар-

Эснаганимиздаги кўз ёшланиши юз мушаклари ҳаракатининг ён таъсирига боғлиқ. Яъни танамизнинг жағ қисми чўзилганда кўзимиз намланади. Агар сиз тўсатдан йиғлашингиз керак бўлса, ўзингизни эснашга мажбур қилишингиз кифоя.

Эснаш бир қарашда зарарсиз туюлади. Аммо бундай оддий ҳаракат ҳам қайғули оқибатларга олиб келиши мумкин. Масалан, хитойлик Вуханда Оу исмли шахс шу даражада қаттиқ эснаганидан ўпкасида тешик пайдо бўлган. Бу “пневмоторакс” деб аталади. Кейинчалик оғриқ шу қадар кучайиб кетдики, бечора нафас ололмай, узоқ даволанишига тўғри келган. Оуни даволаган доктор Чен Баожуннинг айтишича, пневмоторакс 18 ёшдан 30 ёшгача бўлган узун бўйли ва озгин одамларда кўпроқ кузатилади.

Нью-Йорк политехника институти психологи Эндрю Галлупнинг фикрича, агар сиз бирор нарсдан асабийлашсангиз ёки хавотирда бўлсангиз, ўзингизни эснашга мажбур қилишингиз керак. Бу ҳаракат пайтида мия катта дозада дофамин, азот оксиди, серотонин ва окситотсинни ишлаб чиқаради. Ушбу моддалар стрессни енгишга ва дам олишга ёрдам беради.



ни меъёрига келтиради, кайфиятни кўтаради, кишида ўз кучига ишонч уйғотади. Депрессия ҳолатларида, шунингдек, инсултдан кейинги дудқланишни даволашда ҳам бу усул қўлланади. Эртақ ва фольклор адабиёти эса қийинчиликсиз муомала қилиш қоидаларига, кузатувчанликка одатлантиради. Ҳуқуқий адабиёт хавотирли вазиятларнинг олдини олиш, зиддиятларсиз муомалага киришишга ўргатади. Ўсмирларга ўтиш даврида ёрдам беради. Ўткир руҳий зарбалар, сурункали руҳий сиқилишлардан халос этади.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.



Vaziyat
газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқулодда
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир
Азамат СУЮНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00

Навбатчи:
А.ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри
таҳририят нуқтаи назаридан
фарқланиши мумкин.

Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билан рўйхатга олинган
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Юнусобод тумани,
Ш.Рашидов кўчаси, 17-А-уй.
Тел.: (71) 212-69-56
Телеграм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташкilotлар учун - 382

Газета “BUSINESS PRINT DESIGN”
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №165
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади - 9850 нусха